

ZAMONAVIY JAMIYAT HAYOTIDA XIZMATLAR SOHASI JUDA KENG TARQALGAN IJTIMOY-INFRA TUZILMANING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI VA O'RNINING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

¹X.B.Meyliyeva, ²X.B.Ergashev, ³Sh.Sh.Baxshulloyev

¹“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti assistenti

^{2,3}“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8358038>

Annotatsiya. Zamonaviy sharoitda xizmatlar sohasi bo‘sh vaqtni ko‘paytirishga yordam beradi, jamiyat va odamlarning ehtiyojlarini yanada ko‘proq qondirish va oshirish imkoniyatini yaratadi hamda zamonaviy hayot sifatini shakllantirishning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Аннотация. В современных условиях сфера услуг способствует увеличению свободного времени, создает возможность удовлетворения и увеличения потребностей общества и человека, выступает важным элементом формирования качества современной жизни.

Ключевые слова: социальная инфраструктура, картография, национальная экономика.

Abstract. In modern conditions, the service sector helps to increase free time, creates an opportunity to meet and increase the needs of society and people, and appears as an important element in the formation of the quality of modern life.

Kirish. Ijtimoiy sohalar–korxonalar, tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan jamlanma soha hisoblanadi. Boshqacha aytganda, xizmatlar sohasi tijorat, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlari hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q. Har birimiz har kuni xizmat ko‘rsatish ta’sirida bo‘lamiz. Biz uyali aloqa, markazlar, internet, tibbiy va o‘quv markazlari xizmatlaridan foydalanamiz, turli transport vositalarida safar qilamiz va yuk tashiyamiz.

Zamonaviy sharoitda xizmatlar sohasi bo‘sh vaqtni ko‘paytirishga yordam beradi, jamiyat va odamlarning ehtiyojlarini yanada ko‘proq qondirish va oshirish imkoniyatini yaratadi hamda zamonaviy hayot sifatini shakllantirishning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Iqtisodiy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida xizmatlar sohasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida paydo bo‘lib, moddiy ishlab chiqarishning yuksalishi - jamiyatda bevosita moddiy boylik ishlab chiqarmaydigan kishilarni qamrab olish imkoniyati sifatida belgilandi. Eng avvalo, ma’muriy faoliyatning ixtisoslashuvi (dastlabki jamiyatdagi yo‘lboshchilar, jamiyatning davlat tashkilotlari ma’muriy apparati), ruhoniylar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi, mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xizmatlar (professional armiya, sud’yalalar) paydo bo‘ldi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan xizmatlarning yangi yangi sohalarini paydo bo‘ldi. Qadimgi jamiyatda deyarli zamonaviy xizmatlarga mos keladigan transport, savdo, ilm-fan, sog‘liqni

saqlash, ta'lim, moliya, madaniyat, dam olish va h.k. kabi keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatildi. Faqat XIX-XX asrlarda ularga nisbatan birmuncha yangi turlar – aloqa, marketingning ayrim turlari, auditorlik xizmatlari qo'shildi.

XX asrning o'rtalarigacha xizmatlar sohasi nisbatan ikkilamchi iqtisodiy faoliyat deb hisoblandi. Garchi u ishchilarning juda katta qismini qamrab olsada, asosan past darajadagi malakaga ega bo'lgan xodimlar (ayniqsa, xizmatlar ko'rsatishning eng katta sohasi bo'lgan savdo sohasida) edi. Aynan xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi past roli tufayli XVIII asrdan XX asr o'rtalarigacha bu sohadagi ish umuman jamiyat boyligini ko'paytirmaydi deb hisoblandi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi juda past bo'lganligining asosiy sabablari davlat mulkining ustuvorligi va xizmatlar sohasini moliyalashtirishda qoldiq printsipli asosida amalga oshirilganligi bo'ldi.

Aholi iste'mol byudjetida xizmatlar ulushining juda past darajasi yuzaga keldi, bu esa nihoyatda cheklangan assortimentdagi va past sifatli mahsulotlarga bo'lgan talab va to'lov qobiliyatining deformatsiyasiga olib keldi. Turmush, dam olish va bo'sh vaqt sohasida sifat standartlarining juda pastligi moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasidagi korxonalarining moddiy-texnika bazasi ibtidoiy darajadali bilan ajralib turardi (mahalliy sanoat deyarli zarur uskunalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilmagan), malakasi past ishchi kuchidan foydalanilgan, chunki xizmatlar sohasida mehnat haqi eng past darajada edi va yuqori malakali ishchilar boshqa tarmoqlarga yoki yashirin faoliyat turlariga ketib qolishar edi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning ob'ekt sifatida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-infratuzilma sohalari faoliyati olingan.

Ishning predmeti esa O'zbekiston Respublikasi axolisiga xizmat ko'rsatish faoliyati, uning rivojlanish jarayoni, o'ziga xos xususiyatlari hamda Respublikada xizmatlar va ijtimoiy-infratuzilmani kartografik jihatdan o'rganish masalalari olingan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi geografik axborot tizimlari yordamida ijtimoiy-infratuzilmaning rivojlanish yo'llarini tadqiq etish va ularning xaritalarini loyihalash va tuzish. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot ishida quyidagi vazifalar belgilandi va hal qilindi:

- ijtimoiy-infratuzilmaning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rni o'rganish;
- ijtimoiy-infratuzilma soha turlari va ularni tavsifi o'rganib, mavjud muammolar yechimini topishda kartografik metodlarni qo'llash yo'llarini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston ilmiy-ma'lumotnoma kompleks geografik atlaslarida berilgan ijtimoiy-infratuzilma xaritalarni o'rganish va taxlil qilish;
- ilmiy ma'lumotnoma tipidagi ijtimoiy-infratuzilma xaritalarni xaritaga olish bo'yicha O'zbekiston va xorij mamlakatlarida o'rttirilgan tajribalarni o'rganish va tahlil qilish;
- ijtimoiy-infratuzilma xaritalarni tuzish uchun GIS dasturida ma'lumotlar bazasini yaratish yo'llarini o'rganish;
- ijtimoiy-infratuzilma xaritalarni maqsadi, matematik va geografik asos elementlarini hamda kartografik tasvirlash usullarini yaratish yo'llarini tahlil qilish;
- ijtimoiy-infratuzilma va boshqa soxalarga oid kartalarni tuzishda GIS dasturlaridan foydalanish afzalliklarini o'rganish;
- ijtimoiy - infratuzilma muassasalari xaritalarni loyihalash va tuzish.

Ishning ilmiy yangiligi: Ijtimoiy-infratuzilma va xizmat ko'rsatishni kartografik nuqtai nazardan ilk marotaba kompleks tartibda tadqiq etildi. Ijtimoiy-infratuzilmani xaritalarini mazmuni va ko'rsatkichlari asoslandi.

-ijtimoiy-infratuzilma sohalari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar darajasida tahlil etildi.

-ijtimoiy-infratuzilmani xaritalarini loyihalash va tuzish bo'yicha O'zbekistonda va xorij mamlakatlarida o'rtirilgan tajribalar tahlil qilindi va umumlashirildi;

- ijtimoiy-infratuzilma hamda xizmat ko'rsatish, uni darajasini aks ettiruvchi kompleks xaritalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari mamlakatimizda axoli himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi taminlash, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish. Shuningdek, ishda keltirilgan ma'lumotlar oliy ta'limning tegishli yo'nalishlari uchun o'quv jarayonida ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Sohaga tegishli mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy ma'lumotnoma tipidagi ijtimoiy infratuzilma xaritalarini loyahasini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy masalalarini iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq etish bo'yicha Hamdo'stlik mamlakatlarida, shu jumladan, respublikamizda ham qator tadqiqotlar bajarilgan. Chunonchi, T.Mirzaliyev, A.Soliyev, R.Mahamadaliyev, M.Nazarov, A.Qayumov, A.Egamberdiyev va boshqalar tomonida ilmiy izlanishlar olib borilayotganini e'tirof etish mumkin.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan respublika ijtimoiy-infratuzilmasini kompleks o'zgarishlarni iqtisodiy va sotsial geografiya fani nuqtai nazarida o'rganish ularning kartografik tadqiqot usuli yordamida o'rganish va tahlil qilish va baholashni taqazo etadi. Sababi faqat sistemali yondashuv asosida ushbu mavzuga oid tuzilgan karta va atlaslar orqali mamlakatimiz aholisini ijtimoiy geografiyasining barcha o'ziga xos hususiyatlarini aniqlash mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son farmoni. – Xalq so'zi, 8.02.2017.
2. Mirzaliyev T.M., Ota-Mirzayev O. B. Sotsial-iqtisodiy kartografiya: nazariya va amaliyot. - Tashkent: Universitet, 1998y.
3. O'zbekiston geografiya jamiyati. Geografiya: tarix, nazariya, metodlar, amaliyot - Tashkent: Universitet, 2010.-152 b.
4. Egamberdiyev A. Sotsial-iqtisodiy kartografiya. –T.:TashDU. 1989.
5. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 57-jild - Tashkent: Universitet, 2020-132 b, 316 b.
6. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 56-jild - Tashkent: Universitet, 2019- 66 b, 97 b, 277 b.